

QADRINGNI BALAND TUT, EY ONA TILIM
KEEP YOUR DIGNITY HIGH, O MOTHER TONGUE

Nasiba Xo'janova

Termiz davlat universiteti talabasi, Surxondaryo viloyati

Begmatova Durдона Jomg'irovna

Sherobod tumanidagi 7-sonli maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Nasiba Xo'janova

Termez State University student, Surkhandarya region

Begmatova Durдона Jomg'irovna

Teacher of English language of School No. 7 in sherabad district, Surkhandarya region

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning millat madaniyatida tutgan o'rni, o'zbek tilining o'tmishi va bugungi kundagi holati qalamga olingan. Adiblarning til haqidagi fikr- mulohazalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Til, Navoiy, Afrosiyob, o'zbek tili, Oybek, adabiy til, millat, Mahmud Koshg'ariy, qadriyat

Annotation: in this article, the role of the language in the culture of the nation, the past of the Uzbek language and the state of it today are penalized. The writers' opinions about the language were analyzed.

Keywords: language, Navoi, Afrosiyob, Uzbek language, Oybek, literary language, nationality, Mahmud Koshgariy, value

Ona tilim , omon bo'l mangu

Sen borsan- ku men ham o'lmayman,

Tildan qolsam , seni Oybekday

Men ko'zlarim bilan so'ylayman.

Millatni millatlardan ajratib turadigan asosiy belgisi bu-tildir.Til mavjud ekan-xalqning umri boqiydir.Har bir til muayyan xalq uchun aziz hisoblanadi.

Ona tilini sevmagan odamda o'zi tug'ilib o'sgan zaminga , ajdodlariga , buyuk madaniy merosiga , ota- onaga , urf- odatlarga muhabbat bo'lmasa kerak.

Til- xalq ruhi. Tillar insoniyat fikr dunyolarini to'plab avlodlarga yetkazuvchi vositadir. Til millatni, Vatanni birlashtirib , jipslashtirib , ulug' maqsadlar yo'lida elni yanada hayrihoh va hamnafas qiladi.

" Tilni xalq yaratadi " , - deydi shoir N.Rilenkov . Ammo unga sayqal berib badiiylashtiruvchilar- so'z san'atkorlaridir. Adabiy til og'zaki xalq tili hisobiga uzluksiz boyib boradi. Alp Er To'nga- Afrosiyob , Bilge hoqon , Kultegin , Mahmud. Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy , Alisher Navoi, Zahiriddin Boburlarning mumtoz adabiy tilimizni yaratishdagi xizmatlari buyukdir. " Dunyoning eng boy tili turk tilidir", - degan edi A. Fitrat. Haqiqatan ham, o'zbek tili nafaqat qadimiy til u g'oyatda nafosatga boy til, u har qanday ma'noni eng nozik, eng inju qatlamlarigacha ifodalab bera oladigan tildir.

Olimlar , topib bering , qaysi tilda quyoshning o'ndan ortiq ismi bor! Qaysi tilda osmonni kamalak ranglaridek yetti xil nom bilan ataydilar? Osmon , falak, samo , charx , gardun , fazo , ko'k...To'g'ri , bir vaqtlar turkiy tilning nafosatiga shubha bilan qaraydiganlar bor edi - ular nafosat tili , ijod tili fors tili , boshqa tillar esa she'riy tuyg'ularni ifodalay olmaydi deb hisoblashardi. Ammo Navoiy bobomiz o'zining nazmiy va badiiy asarlarida bu qarashning asossiz ekanligini isbotlab berdi. Qolaversa, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi shoirlar ham o'zbek tilining imkoniyatlari beqiyos darajada cheksiz ekanligini o'z ijodida ko'rsatib berdi. O'zbek tili turli zamonlarda turli darajada yashab keldi. So'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy davrida yuksak mavqega erishdi. Ammo biz bugungi kun avlodlari tilimiz imkoniyatlaridan qay darajada foydalanyapmiz? Uning boyishiga xizmat qilyapmizmi? Tilimizning sof saqlanib qolishida hissamizni qo'shyapmizmi? O'tgan ming yillikda dunyo tillarining besh yuztasi o'lik tilga aylangan bo'lsa, mingta til tarix qariga sinhib ketdi. Tilimiz jonkuyari, filologiya fanlari doktori, professor Baxtiyor Mengliyev " Tillar ham odamlarga o'xshaydi, yonma- yon yashashadi, bir- biriga ta'sir qiladi, o'zgaradi- rivojlanadi. Faqat til o'lganda motam tutuvchisi bo'lmaydi", - degan edi. Ona tili - umummillat mulki, til oldidagi mas'uliyat ham umummilliydir. Ba'zan ko'cha - kuyda, afishalarda noto'g'ri yozilgan so'zlarni , imloviy xatolarni ko'rib , beixtiyor Abdulla Qahhorning kuyib- yonib aytgan bir gapi yodimga tushadi : " Ko'chada biror odam qoidani buzsa, darrov militsioner hushtak chaladi, qonunbuzar mo'maygina jarima to'laydi. Nega endi tilimizni pisand qilmaydiganlar, uni har qadamda buzib rasvo qilayotganlarning mushugini hech kim "pisht" demaydi? " Haqiqatan ham, nega? Axir, ko'cha qoidasi qayoqdayu, butun boshli bir millatning eng noyob boyligi bo'lgan til qayoqda? O'z milliy tili haqida g'amxo'rlik qilmagan odam aslida til haqida emas, o'zi haqida g'amxo'rlik qilmagan bo'ladi. Ulug' avar shoiri Rasul Hamzatovning "Mening Dog'istonim" asarida shunday voqea

keltiriladi: "Onaga o'z vatanini tashlab ketib, uni o'zga yerlarga almashtirgan o'g'lining daragini keltirishadi. Hamma adashgan o'g'ilni kechirganday bo'ladi, tirik ekanidan suyunadi. Shunda ona so'rab qoladi:

- Sizlar avarcha so'zlashdinglarmi?

- Yo'q, biz tarjimon yordamida gaplashdik.Men ruscha gapirdim, u fransuzcha.

Ona yuziga qora chodrasini tushiradi, ularda onalar o'z o'g'lining o'lganini eshitganda shunday qilishadi.

O'z ona tilidan ajralmoqlik,milliy hissiyotlarni yo'qotmoqlikdir!!! Til har bir millatning ulkan boyligi ,benazir qadriyati va bebaho mulki hisoblanadi.Mamlakatimizda 1989 yil 21 - oktabrda " O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida" gi qonunning qanul qilinishi tom ma'noda tarixiylikdir.Til haqidagi qonun o'zligimizni saqlab qolish uchun , o'zbek degan xalqning yo'q bo'lib ketmasligi uchun ham kerakdir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda o'zbek adabiy tilini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda . Natijada o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzi oshib, faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, ona tili gulga o'xshaydi. Ammo gul birovning qo'lida bir zumda so'lib qoladi, boshqa birovning qo'lida esa yashnab, barq urin ochiladi. Kelinglar, har birimiz imkonimiz boricha ona tilimizni yashnataylik.Tilimiz boyligini ko'z qorachig'iday asraylik! Shoir aytganidek

Kelib ketdi necha dunyolar,

Kuldi hayot , yig'ladi o'lim.

Sen deb qurbon bo'ldi bobolar,

Ular ketdi, sen qolding , tilim.

Samarqanddan Bobur ketarkan
Silda bo'g'ib hasrat sasini,
Olib ketdi ona yurtidan,
Turkiy tilim, birgina seni!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohim G'ofurov Tanlangan asarlar " Sharq " nashriyoti Toshkent - 2017.
 2. Baxtiyor Mengliyev Hozirgi o'zbek tili. « Tafakkur bo'stoni " nashriyoti . Toshkent- 2018.
- Termiz davlat universiteti o'zbek filologiya fakulteti 3- kurs talabasi Nasiba Xo'janova

List of literature

1. Ibrahim Gafurov Selected Works Publishing House "Sharq" Tashkent - 2017.
 2. Bakhtiyor Mengliyev is the current Uzbek language. Publishing house "bostoni of thought". Tashkent-2018.
- 3rd year student of Uzbek philological Faculty of Termez State University Nasiba Khujanova